

**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ**



**МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ  
ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИНЛАРИ**



**ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ ТҮПЛАМИ**

*2020 йил 2 декабрь*

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»  
нашириёт матбаа бирлашмаси  
Тошкент – 2021

**УЎК: 28:821.512.133.09**

**КБК: 86.38**

**83.3(5Ўзб)**

**A 25**

Маҳмудхўжа Беҳбудий диний-маърифий қарашларининг замонавий талқинлари [Матн] : конференция тўплами / С.С. Агзамходжаев, З.М. Исломов, Н.А. Муҳамедов. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2021. 272 б.

**УЎК: 28:821.512.133.09**

**КБК: 86.38**

**83.3(5Ўзб)**

***Масъул муҳаррирлар:***

*Тарих фанлари доктори, профессор С.С. Агзамходжаев*

*Филология фанлари доктори, профессор З. М. Исломов*

*Тарих фанлари доктори, доцент Н. А. Муҳамедов*

***Таҳрир ҳайъати:***

**Ш.Ёвқочев, И.Усмонов, А.Ҳасанов, Д.Мақсадов, И.Бекмирзаев, Н.Насруллаев,**

**Ш.Тўхтиев, А.Ғаниев, Т.Хатамов, З.Зинатуллаев, С.Сайджалолов,**

**М.Зикруллаев, Т.Қозоқов, М.Жониев, Н.Мирзаев,**

**Л.Абдулқадиров, Д.Нишанова.**

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг 145 йиллик таваллуд санасини кенг нишонлаш борасида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида 2020 йил 2 декабрда Ўзбекистон халқаро ислом академиясида “Маҳмудхўжа Беҳбудий диний-маърифий қарашларининг замонавий талқинлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция ўтказилди. Ушбу конференция материаллари асосида тўплам нашрга тайёрланди.

Мазкур тўпламда жадид маърифатпарварларининг илм-маърифат ва ёшлар тарбиясига доир қарашлари ва амалий фаолияти, хусусан, жадидчилик ҳаракатининг йўлбошчиси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг илм-маърифат ва таълим-тарбияга оид фаолияти, жадидларнинг илм-фан, маърифат ва таълим-тарбияни янгилашга оид қарашлари ва амалий фаолияти, жадид маърифатпарварларининг илмий-маърифий, маданий ва маънавий меросини ёшларга тушунтиришнинг замонавий усул ва воситаларини ўрганишга оид янгича ёндашувлар асосида таклиф ва тавсиялар қамраб олинган мақолалар акс этган. Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар тарихчи олимлар ва файласуфларининг маъruzalari ҳамда шу соҳада илмий тадқиқот олиб бораётган мустакил тадқиқотчилар, докторант, магистр ва талабаларнинг илмий-оммабоп ишлари, тезислари ушбу тўпламдан ўрин олган.

Мақолалардаги маълумотлар асосли эканлигига муаллифлар жавобгардир.

**ISBN 978-9943-6722-2-2**

© «Ўзбекистон халқаро ислом академияси»  
нашиёт-матбаа бирлашмаси, 2021

**УЎК: 28:821.512.133.09**

**КБК: 86.38**

**83.3(5Ўзб)**

**А 25**

Махмудхўжа Беҳбудий диний-маърифий қарашларининг замонавий талқинлари [Матн] : конференция тўплами / С.С. Агзамходжаев, З.М. Исломов, Н.А. Муҳамедов. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2021. 272 б.

**УЎК: 28:821.512.133.09**

**КБК: 86.38**

**83.3(5Ўзб)**

***Масъул мұхаррирлар:***

***Тарих фанлари доктори, профессор С.С. Агзамходжаев***

***Филология фанлари доктори, профессор З. М. Исломов***

***Тарих фанлари доктори, доцент Н. А. Муҳамедов***

***Таҳрир ҳайъати:***

***Ш.Ёвқочев, И.Усмонов, А.Ҳасанов, Д.Максудов, И.Бекмирзаев, Н.Насруллаев,***

***Ш.Тўхтиев, А.Ғаниев, Т.Хатамов, З.Зинатуллаев, С.Сайджалолов,***

***М.Зикруллаев, Т.Қозоқов, М.Жониев, Н.Мирзаев,***

***Л.Абдулқадиров, Д.Нишанова.***

Махмудхўжа Беҳбудийнинг 145 йиллик таваллуд санасини кенг нишонлаш борасида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида 2020 йил 2 декабрда Ўзбекистон халқаро ислом академиясида “Махмудхўжа Беҳбудий диний-маърифий қарашларининг замонавий талқинлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция ўтказилди. Ушбу конференция материаллари асосида тўплам нашрга тайёрланди.

Мазкур тўпламда жадид маърифатпарварларининг илм-маърифат ва ёшлар тарбиясига доир қарашлари ва амалий фаолияти, хусусан, жадидчилик ҳаракатининг ўйлбошчиси Махмудхўжа Беҳбудийнинг илм-маърифат ва таълим-тарбияга оид фаолияти, жадидларнинг илм-фан, маърифат ва таълим-тарбияни янгилашга оид қарашлари ва амалий фаолияти, жадид маърифатпарварларининг илмий-маърифий, маданий ва маънавий меросини ёшларга тушунтиришнинг замонавий усул ва воситаларини ўрганишга оид янгича ёндашувлар асосида таклиф ва тавсиялар қамраб олинган мақолалар акс этган. Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар тарихчи олимлар ва файласуфларининг маъruzалари ҳамда шу соҳада илмий тадқиқот олиб бораётган мустакил тадқиқотчилар, докторант, магистр ва талабаларнинг илмий-оммабоп ишлари, тезислари ушбу тўпламдан ўрин олган.

Мақолалардаги маълумотлар асосли эканлигига муаллифлар жавобгардир.

**ISBN 978-9943-6722-2-2**

© «Ўзбекистон халқаро ислом академияси»  
нашиёт-матбаа бирлашмаси, 2021

назар солиш вақти келди. Ундан қабоҳат эмас, балки малоҳатнинг аксини кўриш насиб этсин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ҳалим Саидов. Асл фарзанд. 2014-йил 22-январ. “Маърифат” газетасидан олинди.
2. Иброҳим Faфуров. Маҳмудхўжа Бехбудий ҳакида икки бадиа. 2019 йил.
3. “Самарқанд” газетаси. 1913 йил, 30 июл.
4. “Ойна” журнали, 1913 йил, 1-сон, 12—14-бетлар.
5. “Самарқанд” газетаси. 1913 йил, 30 июл.

\* \* \*

**XOLIQOV LAZIZJON MAXMUD O‘G‘LI,**  
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti,  
Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti*

#### **ВЕHBUDIYNING MLLIY MA’NAVIYATIMIZNI YUKSALTIRISHDA TUTGAN O‘RNI**

XX asrning boshlarida O‘zbekiston tuprog‘ida ibratomuz tarzda yashagan, mamlakatimiz siyosiy-huquqiy qarashlar tizimiga hissa qo‘shtigan ko‘plab ma’rifatparvar shoiralarning ijtimoiy - siyosiy va falsafiy asarlari, jumladan bu asarlarda olg‘a surilgan va asoslangan hurfikrlilik g‘oyalari diqqatga sazovordir.

Президентимиз Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek, “**Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor**”[1].

Darhaqiqat, o‘zbek xalqining boy ma’naviyati ham o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga ega. Bu ildizlar yaqin o‘tmishda yashagan ulug‘ bobokolon olimlarimizning, taniqli ma’rifatparvarlarimizning g‘oyat boy, jumladan siyosiy-huquqiy, buning tarkibiy qismi bo‘lgan hurfikrlilik g‘oya, qarashlariga borib taqaladi.

Shunday ma’rifatparvarlardan biri Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U tarixda «Turkiston jadidlarining otasi» deb nom olgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo‘jaev Behbudiy haqida bunday degandi: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o‘sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo‘lmasa kerak».

Turkistondagi Milliy Uyg'onish – jadidlar Renessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o'z asarlarida bunga amal qilmoqdalar. Shu o'rinda yapon olimi Xisa Komatsu o'zining "Chig'atoy gurunchi"da "Turk dunyosini uyg'otish yo'lida jon tikkan adiblar" iborasini ishlatalishi va nemis olimasi Ingobarg ham Turkiston uyg'onishi haqidagi yozganini eslash kifoyadir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov jadidlar Uyg'onish davriga asos solganligini e'tirof etgan holda shunday deydi: "XX asr boshida, mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi ufqlarga – milliy va erkinlik sari intilib yashashgan bir davrda buyuk ajdodlarimiz – jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o'ziga xos ma'naviy jasorat na'munasi, deb atash mumkin"[2].

Jadidlar san'at va adabiyot sohasida ham talaygina muvaffaqiyatga erishadilar. 1916-yilda Toshkentga - navbatdagi safarga kelgan taniqli sharqshunos akademik A.N.Samoylovich "Kolizey"da Avloniyning Jalil Mamadqulizoda asari asosida tayyorlangan "O'liklar" spektaklini ko'radi. Bosilib chiqqan barcha o'zbek dramalarini ko'zdan kechiradi. "Sartlarning dramatik adabiyoti" nomli maqola yozadi. 7 drama – "Padarkush", "To'y", (Nusratulla Qudratulla), "Baxtsiz kuyov" (A. Qodiriy), "Axloq", "Juvanmarg" (Abdulla Badriy), "Ko'knori", "Eski maktab-yangi maktab" (Hoji Muin) asosida Turkistonda "Yangi adabiyot" maydonga kelganini ma'lum qiladi. U yozadi: "Turkistondagi yangi adabiyotning markazi Samarqandda bo'lsa kerak, yosh adiblarning bosh ilhomchisi sifatida esa, na tojik na turk asli "xo'ja" samarqandlik mufti Mahmud Behbudiyni e'tirof etish kerak bo'ladi"[3].

Bundan ko'rinish turibdiki, Mahmudxo'ja Behbudi o'sha davrda san'at va adabiyot sohasida ko'plab ishlarni amalga oshiribgina qolmay, o'zi singari ma'rifatparvarlarni har jabhada qo'llab-quvvatlagan hamda ular uchun o'ziga xos ilhom manbai bo'lgan.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov xali mustaqillik qo'lga kiritilmagan tahlikali davrdayoq, "ma'rifatparvar bobolarimiz – jadidchilik namoyandalarining hayoti va ijodiga munosabat masalasida ko'p yillardan buyon davom etayotgan bahslarga oqilona chek qo'yib, ularning merosini xalqimizga qaytarish yo'lidi amaliy, printsipial fikrlarni ilgari surgan"[4]. Uning, - "jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir. ...Ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"[5] - degan so'zlari xech qachon o'z qimatini yo'qotmaydi. Demak, ma'rifatparvarlik g'oyasini avlod va asrlarni bir-biriga tutashtirib turuvchi hayot baxsh ko'prikkqa qiyos qilsak bo'ladi. Bu ko'rik

shunday ko‘priki nafaqat avlodlarning bir-biriga tutashtiradi jamiyatni xar bir bosqichida xalqni milliy o‘zligini anglashida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqida obod va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida fidokorlik ko‘rsatib, milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangani[6] ham buyuk jadid bobolarimizning vatanimiz istiqboli va buyuk kelajagimiz yo‘lida amalga oshirgan ishlarini beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Jadidlar konsepsiyasini tarkibiy qismini Turkistondagi barcha xalqlarni birlashtirish muammosi tashkil etadi. Jadidlar o‘zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning birligi asosida tasavvur etardilar. Bu haqda Behbudiy shunday degandi: “Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman, barchaning manfaatlarini himoya qilishlari kerak. Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda islohatlar o‘tkazishni istasak, bizning ziyoliylar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruxoniylar va olimlar millat va Vatan faravonligiga xizmat qilishlari kerak... Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o‘zimizning noittifoqligimizdir!”[7].

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek, haqqa erishish uchun qaysi millatga mansubligiga qaramay, barcha aholi ijtemoiy kurashga faol kirishishi kerak va rus aholisi bilan birlashib, har bir uezddan vakil saylangan. “Turkiston musulmonlar sho‘rosi”ni tashkil etish lozim. Uning fikricha, Rossiya demokratik davlati doirasida muxtoriyat sifatida shakllanish va mustaqilikka borish yo‘lidagi birinchi shart – ichki qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklarni bartaraf etishdir.

Ko‘rinib turibdiki, Behbudiy milliy ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka ‘oshqaruviga olib kelishini juda yaxshi tushungan. Agar “Butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to‘kilmas yer va amlok taqsim bo‘lmay qolur. Oni ham ravo topur. Ming karra dodu bedodki, ixtilof etmoq uchun ittifoq ekanimiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtlikka duchor bo‘lurmiz”[8].

Agar jadidlar faoliyatining ma’rifatchilik bosqichida Turkiston xalqini birlashtirish fikri ma’naviy xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1917 – 1918 yillarda u Turkiston Muxtoriyatining millliy manfaatlarni himoya qilishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qoldi. M. Behbudiy hech kim, hech qanday hokimiyat xalqqa o‘z ixtiyori bilan mustaqillik bermasligini ta’kidlagan. Tarixda yaxshi ma’lumki, deb yozadi u, “Xaq olinur berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o‘zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi...

Biz musulmonlar xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, xech bir kishi bizning din millatimizga zulm tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo‘q”.

Jadidlar taraqqiyotining muhim omillaridan va milliy davlatchilikning belgilaridan biri deb, milliy matbuot va xalq ta’limini rivojlantirshni ham hisoblaganlar. Toj Rizobadli “Milliy matbuotsiz millatning o‘zi yo‘q[9], - deb yozganida, ancha ilgariga nazar tashlagan edi. Ammo Turkistonning turg‘unlik, qoloqlik va jaholat girdobidan chiqib ketishiga nima halaqt berdi?

Taraqqiyot sari qoloqlikn yorib o‘tishiga yo‘l bermayotgan omillar sababini jadidlar nimada ko‘rdilar? Birinchi navbatda, go‘yoki shariat bilan himoyalanganday tuyulovchi, biroq aslida musumon qonun-qoidalariga yot, shuningsiz ham kishilarning yengil bo‘lmagan hayotini yanada og‘irlashtirayotgan keraksiz va zararli urf-odatlarda. “Nima bizni kemirayapti va orqaga tortayapti?”. Mahmudxo‘ja Behbudiya mana shunday savol qo‘yadi va dabdabali to‘y va dafn marosimlarini nazarda tutib, bu savolga, butunlay ortiqcha rasm-rusumlar va ulrga ketadigan sarf-xarajatlar, - deb javob beradi. Qur’on va hadislarga asoslanib u oilalarni xonavayron bo‘lish xavfini soluvchi shu kabi hodisalarning keraksizligini tushuntiradi. Ortiqcha tantanalarga sarflangan mablag‘lardan ta’lim sohasida foydalanish zarur, musulmonlar o‘z tafakkurini qayta kurashlari lozim, degan g‘oya jadidlarning va harakat rahbari ma’rifatparvar Behbudiyning barcha ishlarida o‘z aksini topgan.

Umuman olganda jadid ziyolilari erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni o‘stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali amaliy uyg‘onish yasamoqchi bo‘ldilar. Buni esa ta’lim va tarbiya-ma’rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo‘lida xormay-tolmay ishладilar[10].

Xususan jadid nomoyondalaridan Mahmudxo‘ja Behbudiya, bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o‘quv yurtlariga yuborish kerak degan masalani o‘rtaga tashladi. U quyidagi uch qoidani olg‘a surdi:

- Zamon tarbiyalaridan kelib chiqib ish ko‘rish;
- Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish;
- Milliy birlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozlari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrimiz uchun mosligi bilan ham ahamiyatlidir. Muxtasar qilib aytganda, buyuk jadid bobolarimizning, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning vatanimiz oldida, xalqimiz oldida ko‘rsatgan jasoratini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyoililari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi gazetasi, 4 avgust, 2017 yil.
2. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat”, 2008, - B. 49
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev O‘. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). K.2: - T.: “Sharq”, 2003, - B. 286 – 288.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.:O‘zbekiston,2011. -20-21-betlar.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7-jild,-T.: “O‘zbekiston”, 1999 y, 135-bet.
6. Prezident o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etmoqda. // <https://kun.uz/uz/news/2020/09/30/prezident-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimda-ishtirok-etmoqda>
7. Behbudiy M. Bayoni haqiqat. // Ulug‘ Turkiston. 1917. 12 iyun.
8. Behbudiy M. Turkiston muxtoriyati.//Xurriyat. 1917. №19. 12 dekabr
9. Behbudiy M. Bizni kemiruvchi illatlar. // Oyna. 1915. № 13. 338-342 betlar.
10. Imomnazarov M “Ma’naviyat asoslari” Toshkent. “Sharq” 2001 y. 131-bet.

<b>Кувандиков И.</b> Беҳбудий ғоялари ҳамиша барҳаёт.....	77
<b>Jumayev E.T.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi .....	82
<b>Абдуллаева Н.О.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy taraqqiyparvar jadidchilik harakatining yo'lбoshchisi.....	86

## **2-ШҮЙБА. МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА АҲЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИНЛАРИ**

<b>Ингеборг Балдауф.</b> Джадидизм в Центральной Азии в плане реформизма и модернизма .....	92
<b>Агзамходжаев С.С.</b> Маҳмудходжа Беҳбуни и джадидское движение за реформацию и обновление общества.....	97
<b>Юсупова Д.Д.</b> Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг динийлик ва дунёвийлик уйғунлигига оид қарашлари .....	102
<b>Эргашева М.З.</b> Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг диний-маърифий ва хуқуқий қарашлари .....	106
<b>Мамасалиев М.М.</b> Дунёни англаган ватанпарвар “Маҳмудхўжа Беҳбуни” .....	113
<b>Салохов А. К.</b> Ёшларда бағрикенглик ғояларини шакллантиришда Маҳмудхўжа Беҳбуни фалсафий меросини ўрганишнинг аҳамияти .....	115
<b>Мустафаева Н.А.</b> Маҳмудхўжа Беҳбуни асарларининг жамият ижтимоий-сиёсий онгига таъсири .....	119
<b>Жамилова Б.</b> Жадид маърифатпарварларининг болалар таълим-тарбиясига оид қарашлари .....	124
<b>Gulamova D.O.</b> Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy - siyosiy qarashlari .....	131
<b>Мирзоева Г.Ш.</b> Маҳмудхўжа Беҳбуни ва маориф соҳасидаги ислоҳотлар ёхуд маърифат излаб.....	135
<b>Xoliqov L.M.</b> Behbudiyning miliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda tutgan o'rni .....	139